



*Safiya YOQUBOVA,*  
*SamDU Urgut filiali assistenti*  
*E-mail: safiyayakubova1231@gmail.com*

*SamDU Urgut filiali dotsenti, U.Sanaqulov taqrizi asosida*

### ISMAILKHAN FAQIRIY — THE OWNER OF A POETIC HERITAGE THAT INTRODUCED INNOVATIONS IN LITERARY STUDIES

Annotation

This article analyzes the poetic heritage of Ismailkhan Faqiriy from the perspective of literary studies. The study identifies aspects of the poet's творчество that have not been sufficiently covered in scholarly research and reveals his enlightenment ideas, artistic and aesthetic views, as well as his poetic thinking. The article substantiates the place and significance of Faqiriy's work in the Uzbek literary process and interprets his poetic heritage as a new object of literary research.

**Key words:** Poetic heritage, enlightenment, poetry, literary studies, artistic thinking, new creator, enlightener, poet.

### ИСМОИЛХОН ФАКИРИЙ — ОБЛАДАТЕЛЬ ПОЭТИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ, ПРЕДСТАВЛЯЮЩЕГО НОВАТОРСТВО В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Аннотация

В данной статье поэтическое наследие Исмоилхона Факирий анализируется с точки зрения литературоведения. Выявляются недостаточно изученные в научных исследованиях аспекты творчества поэта, раскрываются его просветительские идеи, художественно-эстетические взгляды и поэтическое мышление. В статье обосновывается место и значение творчества Факирий в узбекском литературном процессе, а его поэтическое наследие интерпретируется как новый объект литературоведческого исследования.

**Ключевые слова:** Поэтическое наследие, просветительство, поэзия, литературоведение, художественное мышление, новый творец, просветитель, поэт.

### ISMOILXON FAQIRIY –ADABIYOTSHUNOSLIKDA YANGILIK KASB ETGAN POETIK MEROS EGASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ismoilxon Faqiriyning poetik merosi adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shoir ijodining ilmiy tadqiqotlarda yetarlicha yoritilmagan jihatlari aniqlanib, uning ma'rifatparvarlik g'oyalari, badiiy-estetik qarashlari hamda poetik tafakkuri ochib beriladi. Maqolada Faqiriy ijodining o'zbek adabiy jarayonidagi o'rni va ahamiyati asoslab berilib, uning she'riy merosi adabiyotshunoslik uchun yangicha tadqiqot obyekti sifatida talqin etiladi.

**Kalit so'zlar:** Poetik meros, ma'rifatparvarlik, she'riyat, adabiyotshunoslik, badiiy tafakkur, yangi ijodkor, ma'rifatparvar, shoir

**Kirish.** XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida yuzaga kelgan ma'naviy-ma'rifiy yangilanish jarayonlari badiiy tafakkur va poetik ifoda tizimida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga chiqardi. Ana shu jarayonda Faqiriy ijodi an'anaviy she'riy shakl va mazmuni saqlagan holda, poetik obrazlilikka yangicha yondashuvni taklif etgani bilan alohida e'tiborga loyiqdir. Ismoilxon Ibrohimxon o'g'li Faqiriy-Shahrisabz XX asr boshlaridagi o'zbek ma'naviy-ma'rifiy muhitida shakllangan, nasl-nasabi chuqur tarixiy va ilmiy an'analarga borib taqaladigan ijodkorlardan biri hisoblanadi[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Faqiriy shaxsiyati va ijodiy faoliyatini o'rganish o'zbek adabiyotshunosligida asta-sekinlik bilan shakllanayotgan ilmiy yangliklardan biri hisoblanadi. Shoir haqidagi dastlabki ma'lumotlar asosan tarixiy-biografik xarakterdagi manbalarda uchraydi. Jumladan, Nosir Muhammad tomonidan tuzilgan "Nasaf va Kesh allomalari" tazkirasida Faqiriy Shahrisabz vohasining ilmiy va ma'rifiy hayotida faol ishtirok etgan shaxs sifatida qayd etilib, uning hayoti va faoliyatiga oid muhim faktlar keltiriladi. Ushbu asar Faqiriy shaxsini o'rganishda tayanch manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shoir haqida ilmiy muomalaga kiritilgan ensiklopedik ma'lumotlar Sh. Vohidov tadqiqotlari bilan bog'liq. Xususan, "Islam na territorii bivshey Rossiyskoy imperii" ensiklopedik lug'atida Faqiriy diniy-ilmiy bilim ziyoda adabiyot vakili sifatida tavsiflanadi. Keyinchalik ushbu ma'lumotlar "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" sahifalarida tizimlashtirilib, Faqiriy olim,

shoir va shayx sifatida umumiy tavsiflangan. Biroq mazkur manbalarda shoir ijodining poetik xususiyatlari va badiiy tafakkuri yetarli darajada tahlil etilmagan. Faqiriy ijodining hududiy adabiy muhit bilan aloqadorligi masalasi olim M. Ismoilov tadqiqotlarida yoritilgan. Uning ilmiy izlanishlarida Faqiriy va Najotiy ijodining Shahrisabz ilmiy-adabiy muhitidagi o'rni ko'rsatilib, shoirming mintaqaviy adabiy jarayonga qo'shgan hissasi asoslab beriladi. Shoir merosining manbashunoslik jihatlari Sh. Vahidovning xorijiy ilmiy nashrda e'lon qilingan maqolasida yoritilgan. Unda Faqiriyga oid qo'lyozma manbalarning paleografik va kodikologik xususiyatlari tahlil qilinib, shoir merosining ilmiy o'rganilish darajasi aniqlanadi. Ushbu ish Faqiriy poetik merosining hali to'liq tadqiq etilmaganligini yaqqol ko'rsatadi. Davriy matbuotda chop etilgan maqolalar ham Faqiriy shaxsiga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganidan dalolat beradi. Xususan, Mirzo Kenjabek tomonidan yozilgan maqolada shoirming ma'rifatparvarlik qarashlari va axloqiy-talimiy g'oyalari yoritilgan. Sh. Vohidov va M. Ismoilovning hamkorlikdagi ilmiy ishlari Faqiriy shaxsini ko'p qirrali ijodkor sifatida talqin etishi bilan ajralib turadi. Biroq mazkur tadqiqotlarda asosan biografik va umumiy tavsif ustuvor bo'lib, shoir she'riyatining poetik yangiliklari, badiiy-estetik qarashlari va adabiyotshunoslikdagi ilmiy ahamiyati maxsus tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilmagan. Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlarda Ismoilxon Faqiriy shaxsi tarixiy, diniy va ma'rifiy jihatdan yoritilgan bo'lsa-da, uning poetik

merosini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tizimli va yangicha talqin etish masalasi hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Faqiriy adabiy merosi asosan she'riy va tasavvufiy asarlardan iborat bo'lib, uning asosiy ijodiy to'plamlari “Devon”, “Bayoz” va “Ash'ori mutafarriqot”dir. Shuningdek, u “Risolai tariqi zikr” va “Risolai tariqat” kabi tasavvufiy risolalarni ham yaratgan. Ushbu asarlar Faqiriyning haqiqiy ishq, inson kamoloti, axloqiy poklik va ma'rifatparvarlik mavzulariga bag'ishlangan ijodini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Qo'lyozma manbalarni paleografik va kodikologik jihatdan o'rganish shoirning poetik merosini manbaviy asosda tushunishga yordam berdi. Shu bilan birga, Faqiriy ijodi turli davrlar adabiy jarayoni bilan solishtirilib, uning o'ziga xos badiiy uslubi va ilmiy ahamiyati aniqlangan. Bu metodologiya Faqiriy ijodini tarixiy-biografik, badiiy-estetik va ilmiy nuqtai nazardan kompleks baholash imkonini yaratdi va uning o'zbek adabiy jarayonidagi poetik yangilik kiritgan ijodkor sifatidagi o'rni ilmiy asos bilan ko'rsatildi. Ismoilxon Faqiriy hijriy 1328, milodiy 1910- yilda qadimiy Shahrisabz shahrida ziyoli, ma'rifatparvar hamda diniy-ilmiy muhit hukmron bo'lgan oilada tavallud topgan[1].

Manbalarda qayd etilishicha, “Faqiriy” uning adabiy taxallusi bo'lib, bu nom ijodkor dunyoqarashida kamtarlik, ma'naviy poklik va tasavvufiy qarashlarning muhim o'rin tutganini anglatadi[2]. Shu bilan birga, Faqiriyning otabobolari ilm-fan, diniy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etgan, o'z davrida jamiyatning yetuk namoyandalari bo'lgan shaxslar sifatida tilga olinadi. Faqiriy nasabining ilk ma'lum vakillaridan biri Mirakshohxo'ja XVII asrda Buxoro hukmdori Abdulazizxon Ikkinchining (1645–1680) farmoniga binoan o'sha davrda xonlik tarkibiga kirgan Balx shahriga qoziykalon etib tayinlangan. Ushbu mansab Mirakshohxo'janing yuksak diniy-huquqiy bilimiga, shuningdek, davlat boshqaruvi tajribasiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Shu sababli u oilasi bilan Samarqand shahridan Balxga ko'chib o'tib, u yerda ilmiy va diniy faoliyatini davom ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida ushbu sulolaga mansub bo'lgan Mirzo Azizulloxo'ja o'zining tariqatdagi piri — xalifa Abdulkarim bilan birgalikda Movarounnahr hududiga kelib, aholi orasida irshod va hidoyat faoliyati bilan shug'ullangan. U qisqa vaqt ichida xalq orasida katta obro'-e'tibor qozonib, “Mirzo Kalon Xo'ja” nomi bilan mashhur bo'lgan. Azizulloxo'janing Inoyatulloxo'ja va Hidoyatulloxo'ja ismli o'g'illari ham otabobolarining ilm-ma'rifatga asoslangan an'alarini davom ettirgan holda, jamiyatda yetuk va bilimdon shaxslar sifatida tanilgan. Mazkur zotlar Ismoilxon Faqiriyning bevosita bobolari hisoblanadi. Shoirning otasi Ibrohimxon Hidoyatulloxo'ja o'g'li (1887–1914)yosh bo'lishiga qaramay, Shahrisabz shahrining diniy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallagan. U bir vaqtning o'zida bir necha mas'ul lavozimlarda faoliyat yuritgan: Mirzo Ulug'bek tomonidan 1432–1436 yillarda bunyod etilgan Shahrisabzdagi “Dorut-tilovat” jome' masjidida imom-xatib, madrasa mudarrisi hamda Buxoro amirining Shahrisabzdagi vakili yuqori lavozimlarida xizmat qilgan[3]. Bu holat Ibrohimxonning diniy-ilmiy saviyasi bilan bir qatorda, ma'muriy va ijtimoiy sohalarida ham yetuk bilim va tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi. Ana shunday boy ma'naviy muhit, avloddan avlodga o'tib kelgan ilm-ma'rifat an'analari Ismoilxon Faqiriyning shaxsiy kamoloti va ijodiy dunyoqarashi shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Ismoilxon Faqiriy. Bayozi Faqiriy– Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Adolat” nashriyoti, 2004.9-bet.
2. Ramazonov N. Alisher Navoiy ijodida faqir talqinini va faqir obrazi. O'zbek adabiyoti bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati 2019-yil. 132- bet.
3. Komilov N. Tasavvuf. — Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2009. — 42b.

Faqiriy 1910 yilda (hijriy 1328) qadimiy Shahrisabz shahrida ziyoli va nufuzli oilada dunyoga kelgan. Katta bobosi Mirakshohxo'ja XVII asrning ikkinchi yarmida Buxoro hukmdori Abdullazizxon II (1645–1680) farmoni bilan Balx viloyatiga qoziyulkudot lavozimiga tayinlangan. Shu munosabat bilan Mirakshohxo'ja oilasi Samarqanddan Balxga ko'chib o'tgan. Ushbu holat Faqiriy avlodining nafaqat siyosiy va ma'muriy doiralarda, balki ilmiy va madaniy faoliyatda ham faol bo'lganidan dalolat beradi. XIX asrning ikkinchi yarmida ushbu nasldan bo'lgan Mirzo Azizulloxo'ja Naqshbandiyya tariqati piri Xalifa Abdulkarim bilan birga Movarounnahrqa qaytgan. Azizulloxo'ja xalq orasida obro'-e'tiborga ega bo'lib, “Mirzo Kalon Xo'ja” nomi bilan mashhur bo'lgan. Uning o'g'illari — Inoyatulloxo'ja va Hidoyatulloxo'ja — ikki tomonlama ilm-ma'rifatli zodagonlar bo'lib, ular ham Faqiriy naslining ijtimoiy va madaniy hayotdagi rolini davom ettirgan.

Ismoilxon Faqiriy o'z zamonasidagi ko'plab alloma va adiblar bilan faol ilmiy va ma'rifiy muloqot olib borgan. Ularning orasida Shahrisabzlik Xoji Maxdum Hamiddud-din Hamidiy, Fayzalloxo'ja Ravnaqiyy, Kamashilik qoriy Abdulloh Gulshaniy, Denovlik shayx Miyon Buritosh, Dushanbelik olim Domla Hindistoniy, qozikalon Abdurashid va Toshkentlik shoir Zokirjon Habibiy alohida o'rin tutadi[1]. Ushbu shaxslar bilan yuzaga kelgan ilmiy va shaxsiy aloqalar Faqiriyning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, uning ilmiy, tasavvufiy va badiiy salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan.

**Tahlillar va natijalar.** Bugungi kunda ham Faqiriy tavallud topgan xonadon joylashgan hudud tarixiy-madaniy xotira sifatida e'tirof etilib, ushbu meros shoir hayoti va ijodini o'rganishda muhim manbaviy ahamiyat kasb etadi[1]. Uning she'riyatida ma'rifat, ilm ahamiyati, vatanparvarlik, qanoat, poklik, axloq-odob, dunyo va oxirat masalalari chuqur falsafiy mazmunda yoritiladi. Faqiriyning g'azallari shakl va mazmun jihatidan mumtoz adabiyotning an'anaviy tamoyillariga tayangan holda yaratilgan bo'lsa-da, unda o'ziga xos tafakkur kuchi, zamon talabi bilan uyg'unlashgan badiiy yangilanishlar ham namoyon bo'ladi. So'nggi yillarda Faqiriy merosini chuqur ilmiy o'rganish bo'yicha tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Shu ma'noda Ismoilxon Faqiriy ijodi ham o'z davrining ijtimoiy-axloqiy muammolarini chuqur poetik umumlashtirishga erishgan adabiy hodisa sifatida ahamiyatlidir. Ushbu ijodkor adabiyot sohasida chinakkam yangi va yorqin ijodkoridir.

Faqiriy ilm-ma'rifatga boy muhitda shakllanganligi uning ijodida axloqiy poklik, ijtimoiy mas'uliyat va inson kamolotiga oid masalalarni, shuningdek haqiqiy ishq va tasavvuf motivlarini ustuvor mavzu sifatida yoritilishiga imkon yaratgan bo'lib, u mohir zullisonayn sifatida tanilgan.

Xulosa o'rmida ta'kidlash joizki, tahlil etilgan keltirilgan ma'lumotlar asosida Faqiriy ijodiga xos tasavvufiy tafakkur, ramziy obrazlar va badiiy ifoda uyg'unligini yaqqol namoyon etadi. Shoir ishqiy mazmun orqali ilohiy haqiqat, qalb va nur g'oyalarini poetik talqinda yoritib, mumtoz g'azal an'alarini o'ziga xos uslubda davom ettirgan. Faqiriyning bunday badiiy-falsafiy qarashlari uni o'zbek mumtoz adabiyotida hali yetarlicha tadqiq etilmagan, ilmiy jihatdan chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan noyob iqtidor egasi sifatida baholash imkonini beradi.

4. Ismoilov M. Faqiriy va Najotiy ijodiy faoliyatlarining Shahrisabz ilmiy-adabiy muhitida tutgan o'rni xususida // Shahrisabz shahrining jahon tarixida tutgan o'rni. Xalqaro ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. – Toshkent: Fan, 2002.
5. Катраев К. Махдуми Аъзам ва Дахбед. – Самарқанд: Сугдиён, 1994.
6. Komilov N. Tasavvuf va adabiyot. – Toshkent: Akademiya, 2000.
7. Mirzo Kenjabek. Ilm o'rganu, xat o'rganu, odob o'rganu. Sohbi devon Faqiriy hazratlari // Ma'rifat gazetasi, 2004 yil 28-yanvar.
8. Nosir Muhammad. Nasaf va Kesh allomalari: tazkira. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
9. Vahidov Sh. Les particularités paléographiques et codicologiques des fonds particuliers de Rawnaqi et Faqiri (Shahrisabz, Ouzbékistan) // Manuscripta Orientalia. – Vol. 9, No. 3. – September, 2003. – P. 52–56.
10. Vohidov Sh. Faqiriy // Islom na territorii byvshey Rossiyskoy imperii: ensiklopedik slovar. – 3-son. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2001. – B.
11. Факирий И., Хомидов Н. ва бошк. Авлодлар баёзи. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1996.
12. Haqqul I. Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvuf. – Toshkent, 2005.